

**KREDITNI GAROV YOKI BOSHQA TA'MINOT TURLARI BILAN
TA'MINLANMAGAN QISMINI SUG'URTALASH TO'G'RISIDA**
BOSH SHARTNOMA *01/65/1/045*

Andijon sh.

“26” 09 2024-y.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining 2022-yil “25” fevraldaggi 00037-sonli Sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi Litsenziyasi asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradigan, keyingi o‘rinlarda “**SUG‘URTALOVCHI**” deb nomlanuvchi “**MY-INSURANCE**” AJ ST nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi M.B.Ko‘charov bir tomondan, keyingi o‘rinlarda “**SUG‘URTA QILDIRUVCHI**” deb nomlanuvchi, “**Hamkorbank**” ATB nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi B.T. Jo‘rayev ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar”, alohida xollarda “Tomon” deb atalib, Kreditni garov yoki boshqa ta’midot turlari bilan ta’minlanmagan qismini to‘g‘risida Bosh shartnomani (*bundan buyon matnda - Bosh shartnoma deb yuritiladi*) tuzdilar:

1. Mazkur Bosh shartnomaning predmeti O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (Shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo‘shilish shartnomasi) moddalariga tartibida Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnoma shartlariga qo‘shilishi hisoblanadi.
2. Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchining topshirig‘iga ko‘ra, Sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga, mazkur Bosh shartnomanning ajralmas qismi hisoblanadigan 2024-yil “_____” gi “Kreditni garov yoki boshqa ta’midot turlari bilan ta’minlanmagan qismini” sug‘urtalash qoidalari (bundan buyon matnda – “Sug‘urta qoidalari” deb yuritiladi) shartlariga muvofiq, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi oqibatida Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi. Sug‘urta qoidalari doirasida rasmiylashtirilgan sug‘urta polislariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi Naf oluvchi hisoblanadi.
3. Sug‘urta mukofotini to‘lanishi, Qarz oluvchining Sug‘urta qoidalari va elektron sug‘urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, Sug‘urta qoidalari qo‘shilishiga so‘zsiz va to‘liq rozilagini (akseptlaganini) bildiradi.
4. Har bir Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnomaga va Sug‘urta qoidalari qo‘shilishi Sug‘urtalovchi tomondan har bir sug‘urta shartnomasi doirasida berilgan elektron sug‘urta polisi bilan tasdiqlanadi.
5. Tomonlar Sug‘urtalovchining Internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy veb-saytidan, shuningdek mobil ilovalardan, elektron pochtadan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda elektron sug‘urta polislarini rasmiylashtirishga haqli.
6. Tomonlar, Sug‘urta qoidalari muvofiq elektron sug‘urta polisining bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug‘urta qoidalari bo‘lgan shartlar, shu

jumladan sug‘urta polisi matniga kiritilmagan shartlar, Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi uchun majburiydir.

7. Mazkur Bosh shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar, Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan Sug‘urta qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

8. Mazkur Bosh shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so‘ng kuchga kiradi va taraflarning birini tashabbusi bilan ikkinchi tarafni 30 kun oldin ogoxlantirgan xolda bekor qilinishi mumkin, biroq mazkur Bosh shartnoma bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sugurta polislar muddati tugaguniga qadar amalda bo‘ladi.

9. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITLARI

SUG‘URTALOVCHI "MY-INSURANCE" AJ ST

MANZILI: Toshkent sh., Mirobod tumani,
kichik Mirobod ko‘chasi, 95-uy
BANK: "Hamkorbank" ATB bosh ofisi
MFO: 00083, **OKED:** 96220
INN: 207 002 342
X.R.: 20208000104786066011
Elektron pochta: info@myinsurance.uz
TEL.: 71-205-19-19



Boshqaruv raisi: M.B.Ko‘charov
M.O.: _____
imzo

SUG‘URTA QILDIRUVCHI “Hamkorbank” ATB

MANZILI: Andijon sh., Bobur shoh
ko‘chasi, 85 uy
ELEKTRON pochta:
muloqot@hamkorbank.uz
BANK: “Hamkorbank” ATB Bosh ofisi
MFO: 00083, **OKED:** 96120
INN: 200 242 936
TEL.: 0 800 1 200 200
X.R.: _____



Boshqaruv raisi: B.T. Jo‘rayev
M.O.: _____
imzo

“KELISHILGAN”

“Hamkorbak” ATB

Boshqaruv raisi

B.T.Jo'ravey

(imzo va muhr o'rnj)

“26” 09 2024-yil



“TASDIOLAYMAN”

"MY-INSURANCE" AJ ST

Boshqaruv raisi

M.B.Ko'charov

INSURANCE

(imzo va muhr o'mni)

2024-vii



Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'ortalash Oqidalari

1-BO'LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Mazkur "Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash" qoidalari (keyinchalik matnda – Sug'urta qoidalari deb yuritiladi) "MY-INSURANCE" AJST (keyinchalik matnda – Sug'urtalovchi deb yuritiladi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, "Hamkorbank" ATB (keyinchalik matnda – NAF OLUVCHI deb ataluvchi) mijozlariga Umumiy sug'urta sohasining "Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash" qoidalari doirasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartib va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Sug‘urta qoidalarda nazarda tutilgan shartlarga va/yoki qo‘sishma kelishilgan ushbu Sug‘urta qoidalaring ajralmas qismi bo‘lgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz bergenida Sug‘urta qildiruvchiga (Qarz oluvchiga yoki mazkur Sug‘urta qoidalari foydasiga tuzilgan boshqa shaxsga) sug‘urta tovonini to‘lash orqali yetkazilgan zarar o‘rnini quyida ko‘rsatilgan tartibda va hajmda qoplash majburiyatini oladi, shu shart bilan-ki, bunda Sug‘urta qildiruvchi ushbu Sug‘urta qoidalarda ko‘rsatilgan miqdorda, tartibda va muddatda sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini oladi.

1.3. Mazkur sug‘urtalash qoidalariga asosan aniq bir maqsad uchun Qarz oluvchiga (jismoniy/yuridik/o‘z o‘zini band qilgan shaxsga yoki tadbirkorlik subyektiga) berilgan qarzning (kreditning) qaytarilishini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan Sug‘urta qildiruvchining mulkiy manfaatlari sug‘urta obyekti hisoblanadi.

Bunda mazkur mulkiy manfaatlarga ushbu Sug‘urta qoidalarida sanab o‘tilgan tavakkalchiliklardan bevosita yuz bergen sug‘urta hodisasi yuzaga kelganida zarar yetkazilishi mumkin.

1.4. Sug‘urta qildiruvchi / Qarz oluvchi Sug‘urtalovchiga taqdim etgan hujjatlar va ma’lumotlar (garov va kredit, qarz shartnomalari nusxalari, Sug‘urta qildiruvchining / Qarz oluvchining hujjatlari) ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan berilgan ya’ni mazkur qoidalarning 1-ilovasidagi tegishli Elektron sug‘urta polisining ajralmas qismi ekanligini, shuningdek ular ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlar ishonchli hamda haqiqatga to‘g‘ri keluvchi ma’lumotlarga ega ekanligini tasdiqlaydilar.

2-BO'LIM. ATAMALAR

Mazkur Sug‘urta qoidalarida qo‘llangan atamalar quyidagi ma’noga ega:

2.1. Qarz oluvchi – Sug‘urta qildiruvchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirgan, kredit shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchidan kredit olgan, hamda kreditdan Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq foydalandigan shaxs.

2.2. Kredit (qarz) shartnomasi – ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan rasmiylashtirilgan Elektron sug‘urta polisida ko‘rsatilgan fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo‘lib, unga ko‘ra Sug‘urta qildiruvchi Qarz oluvchiga Kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag‘larini (kredit) taqdim etish majburiyatini oladi, Qarz oluvchi esa olingan pul mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarish va u bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2.3. Sug‘urta polisi/elektron sug‘urta polisi – Sug‘urtalovchining sug‘urta tovoni to‘lash bo‘yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta mukofoti to‘langandan keyin beriladigan hujjat. (Mazkur sug‘urta qoidalariiga 1-Ilova)

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

2.4. Sug'urta puli – Elektron sug'urta polislari doirasida Sug'urtalovchi o'z zimmasiga oladigan majburiyat chegarasi. Mazkur qoidalarga binoan sug'urta summasi kredit shartnomasi bo'yicha kredit miqdoriga teng miqdordagi pul mablag'i.

2.5. Sug'urta hodisasi – Haqiqatda vujudga kelgan va uning vujudga kelishi bilan Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyati kuchga kirishiga olib keladigan voqeasi.

2.6. Qarz oluvchining bankrotligi – Sug'urtalash davri, Kutish davrida Qarz oluvchining pul majburiyatlari bo'yicha Sug'urta qildiruvchi va boshqa kreditorlarning talablarini to'liq hajmda qondira olmasligi va (yoki) majburiy to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajara olmasligi sudi tomonidan tan olinishi.

2.7. Sug'urta tovoni – sug'urta qoidasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

2.8. Sug'ura mukofoti (sug'urta badali) – sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta qoidasi (Elektron sug'urta polisi)da shart qilib ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada to'lanadigan sug'urta uchun to'lov.

2.9. Sug'urta qildiruvchi zarari - Qarz oluvchi Sug'urta hodisasi vujudga kelganda sug'urta qildiruvchi oldida o'z majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida Sug'urta qidiruvchi olmagan pul mablag'lari miqdori hisoblanadi:

2.10. Sug'urtalash davri - Elektron sug'urta polisi bo'yicha olingan majburiyatlar amal qiladigan vaqt

2.11. Sug'urta hodisasi haqida dalolatnama – Sug'urtalovchi vujudga kelgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olgan taqdirda uning tomonidan tuziladigan, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi imzolaydigan hujjat, u sug'urta tovonini to'lash uchun asos sifatida xizmat qiladi.

2.12. Kutish davri – Mazkur sug'urta qoidalari bilan nazarda tutilgan sug'urta hodisasi natijasida vujudga kelgan zararni Sug'urtalovchi qoplashidan avvalgi to'lov sanasidan boshlab hisoblab o'tishi kerak bo'lgan, ketma-ket kalendar kunlari soni.

2.13. Sug'urta qildiruvchi da'vosi – Sug'urta qildiruvchi Qarz oluvchiga jo'nata digan yozma talablar, hamda keltirilgan zarar miqdori va sabablari isbotlangan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga asosan tuzilgan sudga da'vo arizalari.

2.14. Xabarnoma – Sug'urta voqeasi oqibatida vujudga kelgan zararlarga ta'sir ko'rsatgan sabab va vaziyatlar ko'rsatilgan Sug'urtalovchiga Sug'urta qildiruvchining yozma murojaati. Xabarnoma, mazkur sug'urta qoidalari nazarda tutilgan sug'urta hodisasini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni o'ziga olganidan so'ng to'liq qabul qilingan hisoblanadi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISACI

3.1. Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta qoidalari muvofiq, Sug'urta qildiruvchiga Kredit mablag'laridan foydalanib, kredit shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatda asosiy kredit qarzdorligini va unga xisoblangan foizlarni (kreditni o'z vaqtida qaytarmaganligi natijasida vujudga kelgan penyalarni hisobga olinmagan holda) 3.2. bandida ko'rsatilgan holatlarga ko'ra to'lay olmaganda sug'urta himoyasini taqdim etadi.

3.2. Kredit shartnomasiga asosan asosiy kredit qarzdorligini va unga xisoblangan foizlarni to'lay olmaslik quyidagi xolatlarda sug'urta hodisasi (penya, jarimalardan tashqari) hisoblanadi:

a) Sud tomonidan qarzdorning faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi qaroriga asosan;

b) Qarzdor to'lov qobiliyatini yo'qotganlishi

v) Qarz oluvchining jismoniy shaxsni/tadbirkorni yoki jamiyat raxbarini yoxud jamiyat ta'sischisini vafot etishi, yoinki vaziyatidan qatiy nazar to'lovga/mehnatga qobilyatsiz bo'lib qolishi natijasida kredit to'lovlari muammoga aylanishi (qarzdorning vafoti yoki to'lovga/mehnatga qobilyatini yo'qotganligi sababli belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatli yaqin qarindoshlari yoki ularning ta'sischiligidagi, raxbarligidagi jamiyatlarini yoxud yaqin qarindoshlari orasidagi YATT faoliyati bilan shug'ullanuvchilar tomonidan kredit qarzini o'z zimmasiga olgan va barcha tegishli xujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hollari bundan mustasno)

g) Kredit shartnomasiga ko'ra kredit bo'yicha 60 kun va undan ortiq muddati o'tgan qarzdorlik

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

bo'lsa;

d) Qarz oluvchining kreditni so'ndirish majburiyatlarini bajarish uchun mol-mulki yetarli bo'lmasa;

3.3. Hodisa Sug'urta xodisasi deb tan olinishi uchun Sug'urtalovchiga mazkur qoidalarning 3-bo'limida nazarada tutilgan holatlar vujudga kelganligini tasdiqlovchi xujjalr Sug'urta kildiruvchi / Qarz oluvchi tomonidan taqdim qilinishi shart.

3.4 Sug'urtalovchi majburiyatlarni, Sug'urta qildiruvchi kredit shartnomasini va mazkur sug'urta qoidalarning o'zining harakatlari va majburiyatlar qismidagi barcha shartlarni to'liq bajargan taqdirda o'zi zimmasiga oladi.

3.5. Sug'urta qildiruvchi zarariga quyidagilar kiritilmaydi va Sug'urtalovchi tomonidan to'lanmaydi: Jarima, penya va kredit bo'yicha boshqa moliyaviy jarimalar, boshqalarning pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar, bank komissiyalari va boshqa to'lovlar.

4-BO'LIM. SUG'URTA MUKOFOTINI TO'LASH VA ELEKTRON SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

4.1. Sug'urta mukofoti summasi Kredit shartnomaning ta'minot miqdori summasidan yillik 2-Illovada belgilangan tariflar miqdorida hisoblanadi.

4.2. Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan u dastlabki ma'lumotlarini (kredit shartnomasi tuzish uchun taqdim etiladigan xujjalr) Sug'urtalovchiga taqdim etgan kundan e'tiboran 3 (uch) kun ichida bir yo'la va to'liq hajmda to'lanishi lozim.

4.3. Sug'urtalovchining Elektron sug'urta polisi doirasida sug'urta tovonini to'lash majburiyati, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda, Elektron sug'urta polisida ko'rsatilgan muddatlarda amal qiladi.

4.4. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urtalovchining javobgarligi haqiqatda to'langan Sug'urta mukofoti miqdoriga mutanosib ravishda belgilanadi.

4.5. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi badali to'langan kun deb, pul mablag'larini Sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan kun hisoblanadi.

4.6. Elektron sug'urta polisi amaldagi sug'urta faoliyati qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtiriladi hamda sug'urta mukofoti/ning birinchi/navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgandan keyin zudlik bilan onlayn rejimda Sug'urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga taqdim etiladi.

4.7. Sug'urta qoidalari muvofiq barcha hisob-kitoblar so'mda amalga oshiriladi.

4.8. Ushbu Sug'urta qoidalari ko'ra Sug'urta shartnomasi Sug'urta polisining aslini Sug'urta qildiruvchiga va uning nusxasini Qarz oluvchiga taqdim etish orqali tuziladi. Sug'urta polisi mazkur Qoidalarning 1-ilovasida kelishilgan namunaviy shaklda Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng rasmiylashtiriladi.

5-BO'LIM. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi huquqlari:

a) Sug'urta qoidalari amal qilishining butun muddati davomida Sug'urtalovchidan sug'urtalash masalalari bo'yicha maslahat olish.

b) Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta qoidalari shartlariga qo'shimcha kelishuvlarni tuzish va kredit shartnomalari doirasida taqdim etilgan sug'urta polislariga qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash yo'li bilan o'zgartirishlar va / yoki qo'shimchalar kiritish;

c) Kreditning garov bilan ta'minlanmagan yoki boshqa ta'minot bilan ta'minlanmagan qismi mazkur qoidalari amal qilish davrida muddatidan avval to'lansa, Sug'urtalovchiga Elektron sug'urta polisini muddatidan avval bekor qilish haqida murojaat qilish;

d) Mazkur Sug'urta qoidalari doirasida Sug'urtalovchi maslahatlarini olish.

e) Mazkur Sug'urta qoidalari 4.7-bandida ko'rsatilgan muddatda Elektron sug'urta polisini olish;

f) Sug'urtalovchi bilan yozma kelishuv asosida Elektron sug'urta polisini muddatidan avval bekor qilish;

g) Sug'urta xodisasi sodir bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchidan belgilangan tartibda sug'urta to'lovini talab qilib olish;

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

h) Sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilgan qaror bilan rozi bo'lмаган тақдирда, qonunchilik bilan belgilangan tartibda Sug'urtalovchining sug'urta tovoni to'lanishi va uning miqdori yoki sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda shikoyat keltirish.

5.2. Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi majburiyatlar:

a) Mazkur sug'urta qoidalarining 4-bo'lмida ko'rsatilgan miqdor va tartibda sug'urta mukofotini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish;

b) Kredit shartnomasining ehtimolli o'zgarishlari, shu jumladan kredit majburiyatida shaxslar almashishi haqida Sug'urtalovchini xabardor qilish;

c) Elektron sug'urta polisi taqdim etilayotganda Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan vaziyatlarda bo'lган jiddiy o'zgarishlar haqida unga ular ma'lum bo'lishi bilan Sug'urtalovchini xabardor qilish, jumladan:

- Kredit shartnomasi bo'yicha mablag' ajratilayotgan shartnomalar shartlari o'zgarishi;

- Qarz oluvchi korxononasining kelajakda qayta tuzilishi yoki tugatilishi;

d) Sug'urtalovchi ma'lumotnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi vujudga kelgan fakti va uning vaziyatlarini aniqlash uchun zarur barcha ma'lumot va axborotlarni taqdim etish;

e) Sug'urtalovchi talab etishi mumkin bo'lган, zarar sabablari va miqdori bilan bog'liq har qanday boshqa isbot-dalillarni keltirish;

f) Sug'urta qildiruvchi Zararni to'lash bo'yicha talabni Sug'urtalovchiga kreditni qaytarish ta'minotini boshqa shakllari bo'yicha huquqlarini amalga oshirganidan so'ng beradi

g) Mazkur sug'urta qoidalari doirasida Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyati vujudga kelishiga olib keladigan sug'urta hodisasi vujudga kelsa, darhol Sug'urtalovchiga mazkur sug'urta qoidalarining 6-Bo'lмida nazarda tutilgan muddat va usulda xabar berish;

h) Sug'urtalovchiga barcha hujjat va isbot-dalillarni berish va Sug'urtalovchi unga subrogatsiya tartibida o'tgan huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lган barcha ma'lumotlarni taqdim etish;

i) Yuridik manzili va / yoki bank rekvizitlari o'zgartirilgan taqdirda, bu haqida Sug'urtalovchiga 5 (besh) ish kunidan kechiktirmasdan yozma xabar berish;

j) Mazkur sug'urta qoidalari amal qilish davrida Sug'urtalovchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash, Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ma'lumot berishi shart bo'lган vaziyatlar bundan istisno;

k) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lagan hajmda Qarz oluvchiga talab qo'yish uchun zarur barcha huquqlarni Sug'urtalovchiga sug'urta tovoni to'lanishidan o'n kun avval topshirishi kerak.

5.3. Sug'urtalovchi huquqlari:

a) Sug'urta qildiruvchi, Qarz oluvchi taqdim etgan ma'lumotlarni, hamda ular kredit shartnomasi va mazkur sug'urta qoidalari shartlarini bajarishini tekshirish;

b) Sug'urta qildiruvchi bilan kelishgan holda mazkur qoidalari shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

c) Sug'urta qildiruvchidan mazkur qoidalari amal qilishi davrida Qarz oluvchining moliyaviy holati va kredit shartnomasi bajarilishi haqida ma'lumot so'rab olish;

d) Sug'urta qildiruvchi bilan birgalikda monitoringda ishtirok etish, hujjatlar asosida va joyiga chiqib Qarz oluvchining xo'jalik faoliyatining haqiqiy ahvolini o'rganish, mazkur sug'urta qoidalalarining amal qilishining butun davrida kredit shartnomasi hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan bitimlar haqida ma'lumot talab qilish;

e) Sug'urta xatari oshishiga olib keladigan vaziyatlar paydo bo'lsa, mazkur sug'urta qoidalari o'zgartirishni yoki xatar darajasi oshishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish;

f) Sug'urta qildiruvchi mazkur sug'urta qoidalari shartlariga asosan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasi, Elektron sug'urta polisini muddatidan avval bekor qilishni talab etish;

g) Qarz oluvchi, Sug'urta qildiruvchi va vakolatli organlardan sug'urta hodisasi faktini va to'lanishi lozim bo'lган sug'urta tovoni miqdorini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni so'rash, hamda

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

sug'urta hodisasi vujudga kelishi vaziyatlarini mustaqil aniqlash, qo'yilgan talab asoslanganligini va sug'urta hodisasi mavjudligini (yo'qligini) aniqlash uchun ekspertizalar o'tkazish;

h) Ishlarni olib borish yoki zararlarni tartibga solish uchun syurveyer, ekspert, avariya komissarları, advokat va boshqa shaxslarni yollash yoki tayinlash. Sug'urta qildiruvchi, Qarz oluvchi bilan birgalikda tergov, sug'urta hodisasi vujudga kelishi fakti va sug'urta tovoni miqdorining ekspert tekshiruvlarini olib borish;

i) Quyidagi vaziyatlarda Sug'urtalovchi sug'urta tovoni (sug'urta miqdorini) to'lashni goldirishi mumkin:

- Agar Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi tashabbusi bilan zarar keltirishi sabablarining va vaziyatlarining qo'shimcha ekspertizasi o'tkazilsa. Bunda sug'urta tovonini to'lash muddati ekspertiza o'tkazilayotgan davrga uzaytiriladi;

j) Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnomaga tuzilganidan va imzolanganidan so'ng, sug'urta tovoni to'lanishidan avval, Sug'urta qildiruvchidan Qarz oluvchiga nisbatan Sug'urta qildiruvchining talab huquqini, uning talabi qondirilgan hajmda topshirishni talab qilish;

k) Mazkur Sug'urta qoidalari ko'rsatilgan manzilga pochta orqali Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchiga sug'urta tovonini to'lashni rad etish javobini yozma jo'natish.

5.4. Sug'urtalovchi majburiyatları:

a) Sug'urta qildiruvchi, Qarz oluvchiga sug'urtalash masalalari bo'yicha tushuntirish va maslahatlar berish;

b) Mazkur Sug'urta qoidalari shartlari bilan Sug'urta qildiruvchi, Qarz oluvchini bevosita shartnomasi (polis)ni rasmiylashtirishdan avval tanishtirib chiqish, va mazkur faktini ofertani imzolash yo'li bilan qayd etish;

c) Mazkur Sug'urta qoidalaring 4.7-bandida belgilangan muddatlarda Elektron sug'urta polisini berish;

d) Barcha zarur hujjatlar olinganidan so'ng, tegishli ekspertizani o'tkazish va sug'urta hodisasi vujudga kelgani fakti aniqlansa, sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnomani 10 (o'n) ish kuni ichida tuzish va imzolash, va sug'urta tovonini mazkur Sug'urta qoidalari bilan nazarda tutilgan muddat va miqdorda to'lab berish;

e) Sug'urta hodisasi vujudga kelgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lab berish sug'urta puli doirasida Qarz oluvchi to'lamagan kredit qismini mazkur sug'urta qoidalaring 6-Bo'limga ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda qoplab berish;

f) Sug'urta qildiruvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta tovonini to'lash uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etganidan so'ng, Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchiga sug'urta tovonini to'lashni rad etish haqida 15 (o'n besh) kun ichida yozma xabardor qilish, unda rad javobi berilishi sabablari asoslagan bo'lishi kerak.

g) Yuridik manzili va telefon raqamlarida barcha o'zgarishlar haqida Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchiga yozma xabarnoma jo'natish.

h) Mazkur sug'urta qolidalari amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ma'lumot berishi shart bo'lgan vaziyatlar bundan istisno.

6-BO'LIM. SUG'URTA TOVONINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta tovoni Sug'urta qildiruvchiga garov bilan ta'minlanmagan yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan kreditning Qarz oluvchi to'lamagan qismi miqdorida, ammo har qanday vaziyatda mazkur sug'urta qoidalari bilan kelishilgan sug'urta pulidan ortmagan miqdorda to'lanadi.

6.2. Sug'urta tovoni miqdorini aniqlanishi: Sug'urta tovonining miqdori Sug'urta qildiruvchining moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi dastlabki buxgalteriya hisobotlari to'g'risidagi ma'lumotlarga va Elektron sug'urta polisi majburiyatlariga asosan aniqlanadi. Sug'urta tovonning miqdori Kredit shartnomasi tugallangan muddatda qaytarilmagan qismidan garovga olingan mulkning realizaiya qilingan qiymati yoki boshqa ta'minotning ayirmasi bilan aniqlanadi.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda birinchi navbatda Qarz oluvchi tomonidan garovga qo'ygan mulkini yoki boshqa ta'minotni undirish uchun murojaat etadi.

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

6.3. Mazkur Sug'urta qoidalarning 3.1-bandida ko'rsatilgan vaziyatlar vujudga kelsa, Sug'urta qildiruvchiga ma'lum bo'lganidang so'ng 30 kun ichida Sug'urtalovchiga sug'urta qoidalari nazarda tutilgan sug'urta hodisasi belgilariga ega sug'urta voqeasi vujudga kelgani haqida xabarnomani topshiradi, va xabarnoma topshirilganidan so'ng 10 (o'n) bank ish kundan kechiktirmay Sug'urtalovchiga zarar keltirilgani faktini va uning miqdorini aniqlash imkoniyatini beruvchi barcha hujjatlarni topshirishi shart (Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o'rtasida kreditni so'ndirish hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar miqdori haqida ma'lumotnomasi, kredit shartnomasi amal qilish davrida pul mablag'lari harakati haqida bank ko'chirmasi, kredit Qarz oluvchining bankrotligini tasdiqlovchi hujjat, pasport, o'lim guvohnomasi, kredit shartnomasi, garov shartnomasi.).

Bunda Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga talab etgan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish uchun Sug'urta qildiruvchiga hamkorlik qilishi shart.

6.4. Sug'urtalovchi yuqorida keltirilgan hujjatlar ro'yxatini qisqartirishga haqli, hamda Sug'urta qildiruvchidan, agar aniq vaziyatlarni inobatga olgan holda, ular yo'qligi sug'urta hodisasi vujudga kelgani faktini va zarar miqdorini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, qo'shimcha hujjatlarni talab etishga haqli.

6.5. Sug'urta qildiruvchi taqdim etgan hujjatlar asosida kutish davri yakunlangandan so'ng Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi vujudga kelgani faktini tan olsa, Sug'urtalovchi 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida sug'urta hodisasi to'g'risida Dalolatnomani tuzadi, unda barcha olingan ma'lumot ko'rsatiladi va to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovoni miqdori aniqlanadi. Sug'urta hodisasi to'g'risida Dalolatnomasi Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi tomonidan imzolanadi.

6.6. Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovoni sug'urta hodisasi to'g'risida Dalolatnomasi imzolangandan so'ng 10 (o'n) bank ish kuni ichida to'lanadi. Sug'urta tovoni to'langan kun deb, pul mablag'lari Sug'urtalovchining hisob raqamidan yechilgan kun hisoblanadi.

6.7. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashda rad javobini qabul qilgan bo'lsa, Sug'urtalovchiga ariza berilgan va barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida Sug'urta qildiruvchiga rad javobining sabablari asoslangan yozma xabarnomasi jo'natiladi.

6.8. Sug'urtalovchi quyidagi vaziyatlarda sug'urta tovonini to'lashga rad javobini berishi mumkin:

a) Agar Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga Elektron sug'urta polisini uchun asos bo'lган hujjatlarni taqdim etganda, sug'urta xatari haqida qaror qabul qilish uchun ahamiyatli vaziyatlar haqida haqiqiy bo'lмаган ма'lumotlarni bergen bo'lsa;

b) Agar sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchining qasddan qilgan harakatlari va/yoki harakatsizligi oqibatida vujudga kelgan bo'lsa, ular o'z fuqaroviylar burchini yoki Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, nomusi va qadriyatlarini himoya qilish bilan bog'liq harakatlar bundan istismo;

c) Agar Sug'urta qildiruvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta hodisasi vaziyatlari va sabablarini, hamda zarar miqdorini aniqlashda ishtirokiga to'sqinlik qilsa;

d) Sug'urta qildiruvchi aybi bilan Sug'urtalovchida subrogatsiya tartibida talab qo'yish imkoniyati bo'lmasa;

e) Sug'urta qildiruvchi kredit mablag'laridan foydalanganlik haqida hujjatlar taqdim etmasa, to'lov topshiriqnomalari, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, schet-faktura, mol olinganligi haqida yuk xatlari va hokazo;

f) Sug'urta qildiruvchi qoida buzishlari, agarda ular Sug'urta qildiruvchining litsenziysi va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlari chaqirib olinishiga olib kelgan bo'lsa, va natijada Qarz oluvchi Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajara olmay qolgan bo'lsa;

g) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Qarz oluvchi kredit mablag'larini ishlatsi bo'yicha o'rnatilgan ichki tartiblariga asosan dastlabki monitoring amalga oshirilmagan bo'lsa;

h) Sug'urta qildiruvchiga Zarar keltirilishi uchun aybdor shaxs tomonidan zarar to'liq qoplangan bo'lsa;

i) Sug'urta qildiruvchi /Qarz oluvchi mazkur Sug'urta qoidalari shartlarini bajarmasa yoki yetarli darajada bajarmasa;

j) Agar Sug'urta qildiruvchi unga zarar keltirgan Qarz oluvchiga nisbatan da'vo huquqidani voz kechsa, yoki unga nisbatan talablar amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqlardan voz kechsa, hamda Sug'urtalovchiga uning subrogatsiya huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lган hujjatlarni

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

topshirishga rad javobini bersa.

7-BO'LIM. SUG'URTA MUDDATLARI

7.1. Mazkur Sug'urta qoidalari taraflar imzolagan kundan kuchga kiradi, ushbu qoidalarning ilovasi sifatida rasmiylashtiriladigan polislarning amal qilish muddatlari polisning o'zida belgilab o'tiladi.

7.2. Taraflarning har biri boshqa tarafga oxirgi manzili bo'yicha qoidani bekor qilishning ehtimolli sanasidan 15 (o'n besh) kun avval yozma ravishda ogohlantirish jo'natib, Elektron sug'urta polisini istalgan vaqtida bekor qilishi mumkin, Elektron sug'urta polisi bekor qilinishida taraflarning yozma roziligi talab etiladi.

7.3. Elektron sug'urta polisi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan sug'urta qoidalari muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Bunda, to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga qaytarib berilmaydi.

7.4. Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi ushbu Sug'urta qoidalari shartlarini Sug'urtalovchi buzgani sababli muddatidan ilgari bekor qilishni so'raganda, Sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

7.5. Sug'urta qildiruvchining o'z majburiyatlarini buzishdan kelib chiqqan holda Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta qoidalari muddatidan ilgari bekor qilishni talab qilganida, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

7.6. Quyidagi holatda, xususan, kredit mablag'larini Qarz oluvchi muddatidan oldin qaytargan bo'lsa, kredit shartnomasi bo'yicha kredit garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan to'liq ta'minlangan bo'lsa, Elektron sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi talabi bo'yicha muddatidan avval bekor qilinishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchining talabiga ko'ra mazkur holatda Sug'urta qoidalari asosida berilgan Elektron sug'urta polisi muddatidan oldin bekor qilinganda, to'langan sug'urta mukofotisug'urta qildiruvchiga qaytarib berilmaydi.

7.7. Mazkur Sug'urta qoidalari va taqdim etilgan sug'urta polislari quyidagi vaziyatlarda tugatiladi:

- a) qoida taraflarining kelishuvi bo'yicha;
- b) Sug'urtalash davri tugaganda;
- c) Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini Sug'urta qildiruvchi, Qarz oluvchi oldida to'liq hajmda bajarganda;
- d) Sug'urta mukofoti belgilangan muddatda to'lanmasa, yoki sug'urta mukofotining navbatdagi qismi Elektron sug'urta polisi bilan belgilangan muddat va tartibda to'lanmasa;
- e) Sug'urta hodisasi vujudga kelishidan avval Sug'urta qildiruvchi tugatilsa;
- f) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan boshqa vaziyatlarda.

7.8. Sug'urta xatari sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra bekor bo'lsa, Elektron sug'urta polisi bekor bo'ladi, xususan, agar kredit qaytarilmasligi xatari sug'urta qilinganda, mazkur sug'urta qoidalarga asosan taqdim etilgan Elektron sug'urta polisi bilan sug'urtalangan kredit qismi bo'yicha debitor qarzdorlik to'langan bo'lsa.

8-BO'LIM. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

8.1. O'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki yetarli darajada bajarmaslik uchun, taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

8.2. Sug'urta mukofoti yoki navbatdagi sug'urta badal o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Sug'urtalovchi har bir kechiktirilgan kun uchun Sug'urta qildiruvchidan to'lanmagan sug'urta mukofotining 0.5% miqdorida penya talab qilishga haqli, ammo uning umumiyligi miqdori kechiktirilgan to'lov miqdorining 50% dan ortiq bo'lishi mumkin emas.

8.3. To'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovoni to'lanishi muddati kechiktirilgan taqdirda, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun to'lovning 0.5% miqdorida penya to'laydi, ammo uning umumiyligi miqdori zarar miqdorining 50% dan ortiq bo'lishi mumkin emas.

8.4. Penya yoki jarima to'lanishi taraflarni mazkur sug'urta qoidalri bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

9-BO'LIM. FORS – MAJOR

9.1. Taraflar fors-major holatlar amal qilishi davrida ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

9.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar tomonidan majburiyatlarni bajarilishi muddati fors-major holatlar amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi. Bunda Taraflar belgilangan tartibda ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlar bo'yicha yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradi.

10-BO'LIM. SUBROGATSIYA

10.1. Sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga to'langan miqdori doirasida Sug'urta qildiruvchining sug'urtalash natijasida qoplangan zarar uchun javobgar Qarz oluvchiga nisbatan talab etish huquqi o'tadi. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga barcha hujjat va isbot-dalillarni topshiradi va Sug'urtalovchi unga o'tgan talab etish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni beradi.

10.2. Agar Sug'urta qildiruvchi zarar keltirishi uchun javobgar shaxs – Qarz oluvchiga nisbatan talab etish huquqidan voz kechsa, yoki ushbu talab etish huquqini Sug'urta qildiruvchi aybi bilan amalga oshirish imkoniyati bo'lmasa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan to'liq yoki tegishli qismida ozod etiladi va Sug'urta qildiruvchidan ortiqcha to'langan sug'urta tovoni miqdorini qaytarib berishni talab qilishga haqlidir.

11-BO'LIM. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

11.1. Mazkur Sug'urta qoidalari bilan nazarda tutilgan masalalar bo'yicha yoki ular bilan bog'liq holda nizo, talab yoki tushunmovchilik vujudga kelsa, taraflar ularni muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etishga choralar ko'rishadi.

11.2. Mazkur Sug'urta qoidalari bilan nazarda tutilgan masalalar bo'yicha yoki ular bilan bog'liq holda, shu jumladan uni ijro etish, buzish, tugatish yoki bekor qilish haqida vujudga kelgan nizo, talab yoki tushunmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoniyati bo'lmasa, Sug'urta qildiruvchi joylashgan joydagagi sud orqali nizolar hal etiladi.

12-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

12.1. Mazkur Sug'urta qoidalari shartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deponent qilingan sug'urtalash Qoidalari va 14-sinf bo'yicha shartnomalarining namunali shakli asosida ishlab chiqilgan.

12.2. Sug'urtalashga Ariza-anketa, unga Sug'urta qildiruvchi ilova qilgan hujjatlar, barcha ilova va qo'shimchalar bilan Kredit shartnomasi, mazkur Sug'urta qoidalariiga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar ushbu Sug'urta qoidalariiga ajralmas va tarkibiy qismi hisoblanadi.

12.3. Kredit shartnomasiga zaruriyat bo'yicha o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilsa, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Elektron sug'urta polisiga ham kiritiladi.

12.4. Qoida taraflari, hamda ularning vakillari va xodimlari mazkur Qoidalarga tegishli firma yoki maxfiy ma'lumotlarni, boshqa taraflarning dastlab yozma rozilgisiz oshkor etishmaydi.

12.5. Mazkur sug'urta Qoidalari bilan tartibga keltirilmagan barcha masalalar bo'yicha Taraflar amaldagi qonunchilikka rioya qilishadi.

12.6. Mazkur sug'urta qoidalari bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuzilgan va imzolangan, u Qarz oluvchi, Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchida bitta nusxdan saqlanadi.

12.7. Mazkur Sug'urta qoidalari taraflar xohishiga ko'ra o'zbek tilida tuzilgan.

SUG'URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

"MY-INSURANCE" AJ ST

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, kichik Mirobod ko'chasi, 95-uy

X/R: 20208000104786066011

Bank: "Hamkorbank" ATB bosh ofisi

MFO: 00083

INN: 207 002 342, OKED: 96220

Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash qoidalari

«Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash»
sug'urta qoidalariiga 2-ilova

“KREDITNI GAROV YOKI BOSHQA TA’MINOT TURLARI BILAN TA’MINLANMAGAN QISMINI SUG‘URTALASH” BO‘YICHA SUG‘URTA TARIFI

"MY-INSURANCE" AJ ST hamda "Hamkorbank" ATB bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan «Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash» sug'urta qoidalariiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'rtalovchiga to'lab beriladigan sug'urta mukofotini hisoblab chiqishda qo'llaniladigan sug'urta tarifi:

T/r.	Sug'urta qaltisligi	Shartli sug'urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	Sug'urta qoidalaring 3-Bo'lim 3.1-3.2-bandlariga asosan	1,0	yillik

**Sug'urta tarifi tomonlar kelishuviga ko'ra ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*

«Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari
bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash»
sug'urta qoidalariiga 1-ilova

**«KREDITNI GAROV YOKI BOSHQA TA'MINOT TURLARI BILAN TA'MINLANMAGAN
QISMINI SUG'URTALASH»
POL_SERY POL_NUM-SONLI ELEKTRON POLISI**

"MY-INSURANCE" AJ ST hamda "Hamkorbank" ATB bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan "Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urta qilish" sug'urta qoidalariiga (bundan buyon matnda – Sug'urta qoidalari deb yuritiladi) muvofiq quyidagilarga sug'urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1.	Sug'urta qildiruvchi:	DOG_BANK_NAME
2.	Sug'urta qildiruvchi manzili:	DOG_BANK_ADR
3.	Qarz oluvchi:	OWN_UZ
4.	Qarz oluvchi manzili:	OWN_ADRES_UZ
5.	kredit miqdori:	CREDIT_SUM (CREDIT_SUM_UZ) so'm
6.	Sug'urta hodisasi:	202 - yil " " da "Hamkorbank" bilan tuzilgan bosh shartnoma doirasida tastiqlangan "kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urta qilish" qoidalaringin 3-bo 'limiga asosan
7.	Sug'urta puli:	POL_OTV (POL_OTV_UZ) sum
8.	Sug'urta mukofoti:	POL_PREM (POL_PREM_UZ) so'm
9.	Sug'urtalash davri:	POL_BEG_UZ y. soat 00-00 dan, POL_END_UZ y. soat 24-00 gacha. (ikkala sana ham kiradi)
10.	Mazkur shartnomada (polisda) bayon qilinmagan barcha shartlar "kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash" qoidalarda belgilangan qoidalarda tartibga solinadi.	

"MY-INSURANCE" AJ STning sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlar sug'urta mukofotini yoki uning qismini o'z vaqtida to'lash sharti bilan DOG_BEG_UZ yildan boshlab kuchga kiradi va DOG-END_UZ yilgacha amal qiladi.

Sug'urtalovchi nomidan:

OWN_BANK

POL_QR_CHECK

OWN_DIREKTOR

Ushbu sug'urta shartnoma(polis)si rasmiylashtish uchun ariza bergunimga qadar "Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash" sug'urta qoidalari mena taqdim etildi. Men ushbu sug'urta qoidalari bilan to'liq tanishib chiqdim va "Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini sug'urtalash" sug'urta qoidadalaridagi shartlar mena to'liq to'g'ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e'tirozim yo'q. Sug'urta qildiruvchi

(FIO va imzo agar yuridik shaxs bo'lsa korxona nomi va vakolatli shaxs imzosi, muxri)

Polis berilgan sana: POL_VIDAN yil.

Raxbari _____ SK
 Kredit oluvchi _____ ga
 dan

**KREDITNI GAROV YOKI BOSHQA TA'MINOT TURLARI BILAN TA'MINLANMAGAN QISMINI
 SUG'URTALASH QOIDALARIDA BELGILANGAN SHARTLARDA SUG'URTA (POLISI)NI TUZISH UCHUN
 ARIZA – SO'ROVNOMA**

Ushbu Ariza-so'rvnomasi bilan Sizdan quyidagi ma'lumotlar asosida sug'urta shartnomasi sug'urta (polisi)ni tuzishingizni so'rayman.

1.	Kredit oluvchi / Sug'urta qildiruvchi	FIO _____
2.	Kredit oluvchining familiyasi, Ismi va Otasining ismi: Pasport ma'lumotlari: Mobil telefon raqami: Yashash manzili:	_____
3.	Kredit shartnomasi:	20__ yil “___” ____dagi ____-sonli shartnomasi
4.	Kredit summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
5.	Kredit muddati:	20__ yil “___” ____dan 20__ yil “___” ____gacha
6.	Kredit maqsadi:	_____
7.	Sug'urtalash shartnomasining amal qilish muddati:	20__ yil “___” ____dan 20__ yil “___” ____gacha oxirgi kuni kirgan xolda
8.	Kredit qaytmastlik xatari bo'yicha sug'urta summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
9.	Sug'urta mukofoti miqdori	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)

Ushbu Ariza-So'rvnomada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar haqqoniyligi va ishonchliligi tasdiqlayman.

Kredit oluvchi / _____ FIO _____
Sug'urta qildiruvchi: _____ (imzo) _____ (sana)

Ushbu Ariza-So'rvnomani imzolar ekanman, “_____” SK tomonidan tasdiqlangan “Kreditni garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismini” sug'urtalash qoidalari (keyinchalik matnda – Sug'urtalash qoidalari deb yuritiladi) u bilan tanishganimni, Sug'urtalash qoidalalarining qog'ozda asli va elektron nusxasini olganimni va Sug'urtalash qoidalari shartlariga o'z roziligidanni bildiraman va tasdiqlayman.

(Kredit oluvchining Familiyasi, Ismi va Otasining ismi) _____ (imzo) _____ (sana)

